



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOB ILMIIY JURNALI

Vol. 6 Issue 05 | pp. 49-55 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### XUSUSIY KAPITALNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR



Najimova Nigora – SamISI, doktorant

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada xususiy kapitalni hisob obyektida tasniflash va baholashning nazariy hamda amaliy jihatlari, xususiy kapitalning iqtisodiy mohiyati, uning tarkibiy tuzilmasi va korxonada moliyaviy barqarorligidagi oʻrni tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan hamda xususiy kapitalning investitsiya kapitali, jamgʻarilgan natijalar, zaxiralar, boshqa elementlar hamda kamaytiruvchi elementlar kabi tarkibiy qismlarga ajratilgan takomillashtirilgan tasnifi ishlab chiqilgan.

**Kalit soʻzlar:** xususiy kapital, ustavo kapitali, qoʻshimcha kapital, zaxiralar, taqsimlanmagan foyda, kapital tasnifi, kapital baholash, moliyaviy barqarorlik, moliyaviy hisobot, boshqaruv qarorlari.

**Аннотация:** В данной статье на основе системного подхода анализируются теоретические и практические аспекты классификации и оценки частного капитала как объекта учета, экономической сущности частного капитала, его структурного устройства и роли в финансовой стабильности предприятия, а также разрабатывается усовершенствованная классификация частного капитала, разделенного на такие компоненты, как инвестиционный капитал, накопленная прибыль, резервы, прочие элементы и сокращающие элементы.

**Ключевые слова:** уставный капитал, уставный капитал, дополнительный капитал, резервы, нераспределенная прибыль, классификация капитала, оценка капитала, финансовая стабильность, финансовая отчетность, управленческие решения.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical aspects of the classification and assessment of private capital as an accounting object, the economic essence of private capital, its structural structure and its role in the financial stability of the enterprise based on a systematic approach, and develops an improved classification of private capital divided into such components as investment capital, accumulated results, reserves, other elements and reducing elements.

**Keywords:** authorized capital, authorized capital, additional capital, reserves, retained earnings, capital classification, capital assessment, financial stability, financial reporting, management decisions.

#### KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalar faoliyatining barqarorligi, rivojlanish darajasi va bozordagi raqobatbardoshligi koʻp jihatdan ularning xususiy kapitali holatiga bogʻliq hisoblanadi. Xususiy kapital korxonaning moliyaviy mustaqilligini ifodalovchi

asosiy manba bo'lib, u nafaqat faoliyatni moliyalashtirish vositasi, balki yuzaga keladigan xavf-xatarlarni qoplash imkoniyatini ham belgilaydi. Shu sababli, xususiy kapitalni hisobga olish, tasniflash va baholash masalalari iqtisodiy va ilmiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish jarayonida xalqaro talablarga moslashish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, Xalqaro buxgalteriya standartlari kengashi tomonidan ishlab chiqilgan Moliyaviy hisobotlarda taqdim etish va oshkor qilish standarti (18-son MHXS) moliyaviy axborotni yanada aniq, tushunarli va solishtirish imkonini beradigan shaklda taqdim etishni talab qiladi. Ushbu yondashuv xususiy kapitalni oddiy ko'rsatkich sifatida emas, balki korxonaning moliyaviy natijalari, boshqa umumiy daromadlari hamda egalar bilan bog'liq operatsiyalar natijasida shakllanuvchi murakkab tizim sifatida ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Mavzuning ilmiy muammosi shundan iboratki, amaldagi hisob tizimlarida xususiy kapitalning tarkibi yetarli darajada chuqur tasniflanmagan va uning iqtisodiy mazmuni to'liq ochib berilmayapti. Ko'pincha ustav kapitali, qo'shimcha mablag'lar, zaxiralar va taqsimlanmagan foyda kabi unsurlar alohida hisobga olinadi, biroq ularning o'zaro bog'liqligi, harakati va korxonaning moliyaviy barqarorligiga ta'siri yetarli darajada tizimli yondashuv asosida tahlil qilinmaydi. Bundan tashqari, kapital va majburiyat o'rtasidagi farqlarni aniq ajratish ham amaliyotda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, bozor tavakkalchiligining ortishi hamda korxonalar faoliyatida yuzaga kelayotgan turli xavf-xatarlar xususiy kapitalni yanada chuqurroq o'rganishni talab qilmoqda. Xususan, sug'urta va moliya sohalarida kapitalning risklarni qoplashdagi o'rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, xususiy kapitalni faqat buxgalteriya hisobining elementi sifatida emas, balki iqtisodiy xavflarni boshqarish vositasi sifatida ham ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

#### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Xususiy kapitalni hisob obyektini sifatida tasniflash va baholash masalalari xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, Stephen Penman xususiy kapitalni korxonaning qiymatini aniqlashning asosiy manbai sifatida baholab, uning tarkibi va daromadlilik bilan bog'liqligini chuqur tahlil qiladi [1]. Donald E. Kieso esa kapitalni buxgalteriya hisobotining markaziy elementi sifatida ko'rib, uning to'g'ri tasniflanishi moliyaviy natijalarni aniq aks ettirishda muhim ekanligini ta'kidlaydi [2]. Aswath Damodaran kapitalni risk va daromadlilik o'rtasidagi muvozanat vositasi sifatida izohlab, uning baholanishi investitsion qarorlar qabul qilishda hal qiluvchi omil ekanligini asoslaydi [3]. Eugene Fama esa kapital bozori samaradorligi nuqtayi nazaridan kapital tarkibi va uning qiymatga ta'sirini tadqiq etadi [4]. Ushbu olimlarning fikrlariga ko'ra, xususiy kapitalni baholash nafaqat hisob jarayoni, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Rus olimlari ham ushbu yo'nalishda muhim ilmiy natijalarga erishgan. Jumladan, Viktor Kovalev xususiy kapitalni korxonaning moliyaviy barqarorligining asosiy ko'rsatkichi sifatida ko'rib, uning tarkibini chuqur tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi [5]. Oleg Efimov kapitalni baholashda uning likvidligi va barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi [6]. Tatyana Sheremet esa kapitalni buxgalteriya hisobi va tahlil obyektini sifatida o'rganib, uning tarkibiy elementlarini funksional jihatdan tasniflash zarurligini

asoslaydi [7]. Ushbu tadqiqotlar kapitalni faqat hisob elementi emas, balki korxonaning moliyaviy holatini kompleks baholash vositasi sifatida qarash lozimligini ko'rsatadi.

O'zbek olimlari tomonidan ham xususiy kapitalni hisobga olish va takomillashtirish masalalari chuqur o'rganilgan. Jumladan, K.B.Urazov, M.E.Po'latovlar xususiy kapital – bu korxonaning barcha aktivlaridan uning majburiyatlarini chegirib tashlagandan so'ng qoladigan summa deb ta'riflashgan. [8]. F.G'. G'ulomova va U.T. Fayzievalar tomonidan buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun chop etilgan qo'llanmada "Ustav kapitali – korxonani tashkil qilish vaqtida uning ta'xis hujjatlarida belgilangan miqdorda faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun qatnashchilar (mulkdorlar) mol-mulkdagi ulushining (pul birligidagi) yig'indisini ifodalaydi" deb tarif berishgan [9]. A.A. Karimov, F.R. Islomov. A.Z. Avloqulovlarning "Buxgalteriya hisobi" darsligida, "Ustav kapitali – huquqlar va imtiyozlar olish uchun korxonaning muassislari tomonidan ta'xis hujjatlariga muvofiq qo'shilgan (to'langan) hamda korxonaning xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar, pul mablag'lari va xarajatlar majmuidir" deb takidlashgan [10]. Ushbu olimlarning fikrlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xususiy kapitalni hisob obyektini sifatida takomillashtirish zarurati uning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq ochib berish, risklarni boshqarish bilan integratsiyalash hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bilan bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xususiy kapitalni tasniflash va baholash masalasi ko'p qirrali bo'lib, u buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil va investitsion qarorlar bilan uzviy bog'liqdir. Xorijiy olimlar kapitalni qiymat yaratish va risklarni boshqarish vositasi sifatida baholasa, rus olimlari uning barqarorlik va likvidlik bilan bog'liqligini chuqur o'rganadi, o'zbek olimlari esa milliy amaliyotda uni takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratadi. Shu asosda xususiy kapitalni xalqaro moliyaviy hisobot talablari asosida qayta tasniflash va baholash zarurati ilmiy jihatdan asoslanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xususiy kapitalni hisob obyektini sifatida tasniflash va baholashni takomillashtirish maqsadida tizimli, qiyosiy, analitik hamda iqtisodiy-matematik yondashuvlar uyg'un holda qo'llanildi. Tizimli tahlil yordamida xususiy kapital yagona iqtisodiy tizim sifatida o'rganilib, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va funksional vazifalar aniqlashtirildi, qiyosiy tahlil orqali esa milliy hisob tizimi va xalqaro talablar o'rtasidagi farqlar baholanib, mavjud kamchiliklar asoslandi. Analitik yondashuv va iqtisodiy-matematik model orqali xususiy kapitalning dinamikasi, ya'ni uning foyda, qo'shimcha kiritmalar, dividendlar va boshqa omillar ta'sirida o'zgarishi miqdoriy jihatdan ifodalandi, bu esa kapital harakatini chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Shuningdek, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy abstraksiya usullari asosida xususiy kapitalning nazariy mohiyati tizimlashtirildi hamda uning asosiy, himoya va rivojlanish funksiyalariga asoslangan takomillashtirilgan tasnif modeli ishlab chiqildi, SWOT tahlil yordamida esa amaldagi hisob tizimining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlari aniqlanib, amaliy takliflar ishlab chiqish uchun ilmiy asos yaratildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xususiy kapital korxonaning moliyaviy resurslari tarkibida alohida o'rin tutuvchi iqtisodiy kategoriya bo'lib, u korxonaga egalari tegishli bo'lgan sof aktivlar yig'indisini ifodalaydi. Xususiy kapital korxonaga aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi hamda korxonaning moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi va rivojlanish imkoniyatlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Mazkur kapital turi qarz mablag'laridan farqli ravishda majburiy qaytarish talab etilmaydigan, korxonaga faoliyatida doimiy ishtirok etuvchi moliyaviy manba sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, u korxonaga faoliyatida yuzaga keladigan zararlarni qoplashda birinchi navbatdagi himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda xususiy kapitalni hisobga olish va boshqarish masalalari xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlashga qaratilgan me'yoriy hujjatlar bilan chambarchas bog'liq. Xalqaro amaliyotda xususiy kapitalning to'g'ri tan olinishi, baholanishi va ochiq qilinishi investorlar, kreditorlar va boshqa manfaatdor tomonlar uchun muhim axborot manbai hisoblanadi. Shu bilan birga, rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun xususiy kapitalni shakllantirish, saqlash va samarali boshqarish muammolari dolzarbligicha qolmoqda.

1-jadval

**Jahonning yirik korxonalarining 2025 yil balans ma'lumotlari  
(mlrd AQSh \$)**

No	Korxonaga nomi	Jami aktivlar	Xususiy kapital	Jami majburiyatlar
1	Berkshire Hathaway kompaniyasi <sup>1</sup>	1 222,1	719,7	502,4
2	Microsoft kompaniyasi <sup>2</sup>	665,3	390,9	274,4
3	Alfabet kompaniyasi <sup>3</sup>	595,2	415,2	180,0
4	Apple Inc. <sup>4</sup>	364,9	56,9	308,0
5	Meta Platforms kompaniyasi <sup>5</sup>	366,0	217,2	148,7

Keltirilgan jadval ma'lumotlari yirik xalqaro kompaniyalar moliyaviy barqarorligida xususiy kapitalning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini yaqqol namoyon etadi. Xususan, Berkshire Hathaway kompaniyasida jami aktivlar 1 222,1 mlrd AQSH dollari tashkil etib, uning 719,7 mlrd AQSH dollari xususiy kapital hisobiga moliyalashtirilgan bo'lib, bu korxonaning yuqori darajadagi moliyaviy mustaqilligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, Microsoft kompaniyasi (390,9 mlrd \$) va Alfabet kompaniyasi (415,2 mlrd \$)da ham xususiy kapital majburiyatlarga nisbatan ustun bo'lib, bu ularning past qarz yuklamasi va barqaror rivojlanish modeliga ega ekanligini anglatadi. Ayniqsa, Alfabet

<sup>1</sup> <https://www.berkshirehathaway.com/2025ar/2025ar.pdf>

<sup>2</sup> <https://www.microsoft.com/en-us/Investor/earnings/FY-2026-Q2/balance-sheets>

<sup>3</sup> <https://abc.xyz/investor/>

<sup>4</sup> <https://www.apple.com/investor/earnings>

<sup>5</sup> <https://investor.atmeta.com/investor-events/event-details/2026/Q4-2025-Earnings-Call/default.aspx>

kompaniyasida xususiy kapitalning majburiyatlardan qariyb 2,3 barobar yuqoriligi uning yuqori darajadagi kapital yetarililigi ifodalaydi. Meta Platforms kompaniyasida ham xuddi shunday tendensiya kuzatilib, 217,2 mlrd AQSH dollarlik xususiy kapital 148,7 mlrd AQSH dollarlik majburiyatlardan sezilarli darajada yuqori. Biroq Apple Inc. misolida aksincha holat kuzatilib, 56,9 mlrd dollarlik xususiy kapital 308,0 mlrd dollarlik majburiyatlardan ancha past bo'lib, kompaniyaning qarzdin foydalanish darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Umuman olganda, ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, xususiy kapitalning yetarli darajada shakllantirilishi korxonalarining moliyaviy barqarorligi, risklarga chidamliligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ayniqsa sug'urta tashkilotlarida xususiy kapitalni optimal darajada shakllantirish va boshqarish masalasi yanada dolzarb bo'lib, u nafaqat majburiyatlarni qoplash kafolati, balki risklarni moliyaviy jihatdan neytrallashtirishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.



1-rasm. Xususiy kapital elementlari.<sup>6</sup>

Mazkur rasmda keltirilgan xususiy kapital tasnifi ilmiy va amaliy jihatdan asosli bo'lib, u kapitalning shakllanish manbalari, iqtisodiy mazmuni va funksional vazifalariga asoslangan holda tizimlashtirilgan. Ushbu tasnifning metodologik asosi shundan iboratki, xususiy kapital bir xil tabiatga ega bo'lgan yagona element emas, balki turli iqtisodiy jarayonlar natijasida shakllanadigan va turli vazifalarni bajaradigan ko'p tarkibli tizim hisoblanadi.

Birinchi guruh – investitsiya kapitali (ustav kapitali va qo'shilgan kapital) korxonaga tashqi manbalar, ya'ni mulkdorlar tomonidan kiritilgan mablag'larni ifodalaydi. Bu kapital korxonaning boshlang'ich moliyaviy asosini yaratadi va uning uzoq muddatli faoliyatini ta'minlaydi. Ustav kapitali mulkdorlarning asosiy ulushini aks ettirsa,

<sup>6</sup> Adabiyotlar asosida muallif ishlanmasi

qo'shilgan kapital aksiyalarni yuqori bahoda joylashtirish yoki qo'shimcha badallar hisobiga shakllanadi. Shu sababli bu guruh kapitalning manba (kelib chiqish) mezoniga asoslangan tasnifini ifodalaydi.

Ikkinchi guruh – jamg'arilgan natijalar (taqsimlanmagan foyda va davr foydasi) korxonada faoliyati natijasida ichki manba sifatida shakllangan kapitalni ifodalaydi. Bu elementlar korxonaning iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi va kapitalning o'sish dinamikasini belgilaydi. Ayniqsa, taqsimlanmagan foyda reinvestitsiya orqali kelajakdagi rivojlanishning asosiy manbasi hisoblanadi. Ushbu guruh kapitalning natijaviy (operatsion faoliyatga bog'liq) jihatini ochib beradi.

Uchinchi guruh – zaxiralar (majburiy va ixtiyoriy) kapitalning himoya funksiyasini ifodalaydi. Bu elementlar turli tavakkalchiliklar, kutilmagan zararlar va moliyaviy beqarorlik holatlarida korxonada barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Majburiy zaxiralar qonunchilik asosida shakllansa, ixtiyoriy zaxiralar korxonada ichki siyosati asosida tashkil etiladi. Shu bois mazkur guruh kapitalning risklarni qoplash va himoya qilish vazifasiga asoslanadi.

To'rtinchi guruh – boshqa elementlar (qayta baholash natijalari va maqsadli tushumlar) kapitalning qo'shimcha va bevosita operatsion faoliyatga bog'liq bo'lmagan o'zgarishlarini aks ettiradi. Qayta baholash natijalari aktivlar qiymatining o'zgarishi orqali kapitalni oshiradi, maqsadli tushumlar esa muayyan loyihalarni moliyalashtirish uchun jalb etiladi. Bu elementlar kapitalning baholash va tashqi omillar ta'sirida o'zgarish xususiyatini ifodalaydi.

Beshinchi guruh – manfiy elementlar (sotib olingan aksiyalar va boshqa kamaytiruvchi omillar) kapitalning kamayishiga olib keluvchi holatlarni ko'rsatadi. Masalan, korxonaning o'z aksiyalarini qayta sotib olishi kapitalni kamaytiradi va bu holat alohida aks ettirilishi zarur. Bu guruh kapitalning reduksion (kamaytiruvchi) komponentlarini tizimli hisobga olish imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu tasnif xususiy kapitalni besh yo'nalishda – manbasi, natijasi, himoya funksiyasi, qo'shimcha o'zgarishlari va kamaytiruvchi omillari bo'yicha kompleks yondashuv asosida guruhlaydi. Bu yondashuv kapitalni an'anaviy shakldagi oddiy tarkibiy ajratishdan farqli ravishda uning iqtisodiy mohiyatini chuqurroq ochib beradi, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yuqori analitik imkoniyat yaratadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, taqdim etilgan tasnif xususiy kapitalni yagona ko'rsatkich sifatida emas, balki uning shakllanish manbalari, natijalari, himoya funksiyalari va kamaytiruvchi omillarini o'z ichiga olgan ko'p darajali tizim sifatida yoritadi. Investitsiya kapitali orqali tashqi manbalar, jamg'arilgan natijalar orqali ichki samaradorlik, zaxiralar orqali risklarni qoplash imkoniyati, boshqa elementlar orqali baholashdagi o'zgarishlar hamda manfiy elementlar orqali kapitalning kamayish jarayonlari aniq aks ettiriladi. Bu esa xususiy kapitalning iqtisodiy mohiyatini to'liq va tizimli tarzda ochib berishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ushbu tasnif amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, u moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, kapital harakatini aniq nazorat qilish

hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini kuchaytiradi. Kapital elementlarini bunday keng qamrovli guruhlash korxonada risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va investitsion jozibadorlikni oshirish uchun zarur analitik asos yaratadi. Natijada, xususiy kapitalni hisobga olish va tahlil qilish jarayoni yanada mukammallashadi va zamonaviy iqtisodiy talablar darajasiga moslashadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Penman S. H. Financial Statement Analysis and Security Valuation. – New York: McGraw-Hill Education, 2013. – 688 p.
2. Kieso D. E., Weygandt J. J., Warfield T. D. Intermediate Accounting. – Hoboken: Wiley, 2018. – 1824 p.
3. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – New York: Wiley, 2012. – 992 p.
4. Fama E. F. Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work // Journal of Finance. – 1970. – Vol. 25, No. 2. – P. 383–417.
5. Ковалев В. В. Финансовый анализ: управление капиталом. – М.: Проспект, 2016. – 512 с.
6. Ефимова О. В. Финансовый анализ: современный инструментарий для принятия экономических решений. – М.: Омега-Л, 2017. – 352 с.
7. Шеремет А. Д. Теория экономического анализа. – М.: ИНФРА-М, 2015. – 416 с.
8. Уразов К.Б., Пўлатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020, 564 бет.
9. Ғуломова Ф.Ғ., Файзиева У.Т. Бухгалтерия ҳисобини мустақил ўрганиш учун қўлланма. – Тошкент: “Норма”, 2012. – 528 б.
10. Каримов, А.А, ва бошқ. Бухгалтерия ҳисоби: Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик/Муаллифлар: А.А. Каримов, Ф.Р. Исломов. А.З. Авлоқулов. – Т.: “Шарқ”, 2004-йил.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

